



IBORALARNI TARJIMA QILISHDA ADEKVATLIKKA ERISHISH USULLARI

*Najmiddinova Aziza,
SamDCHTI magistranti*

Kalit soʻzlar: ibora, tilshunoslik, obraz, usul.

“Hozirgi paytda xorijiy tillarni oʻrganish va oʻrgatishga respublikamiz miqyosida katta ahamiyat berilmoqda. Butun jahon hamjamiyatlaridan oʻziga xos oʻrin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda oʻz buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilish ahamiyatini baholashning hojati yoʻqdir”, - deb taʼkidlagan birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

Iboralarni oʻrganish alohida bir boʻlim boʻlib, unda koʻchma maʼnoga asoslangan turgʻun birikmalar, iboralar oʻrganiladi. “Ibora” termini grekcha “pharsis” fraza, ifoda; “logos” taʼlimot degan maʼnolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat koʻchma maʼnoga asoslangan turgʻun birikmalar kiritiladi. Tilshunoslik boʻlimi sifatidagi iboraning asosiy diqqat-eʼtibori tabiatini va ularning kategorial belgilarini oʻrganishga, shuningdek, iboralarning nutqda qoʻllanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Uning eng muhim muammosi iboralarni nutqda hosil qilinadigan (yaʼni avvaldan tayyor boʻlmagan) soʻz birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda iboralarning belgilarini aniqlashdir. Koʻplab tadqiqotchilar iborani 2 xil: tor va keng maʼnoda tushunadilar. Uni keng maʼnoda tushunilganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) ibora doirasiga barqaror jumlar, baʼzi muloqot shakllari ham kiritiladi. Lekin bu masala, yaʼni iborani keng maʼnoda tushunish masalasi hanuz munozarali boʻlib qolmoqda.

Iboraning alohida fan sifatida oʻrganilishi bir necha asrlarni oʻz ichiga oladi. Xususan, rus tilshunosligida tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab ibora tarjimasidagi muammolarga qiziq boshlashgan. Jumladan, M.V. Lomonosov rus adabiy tili lugʻatini

tuzar ekan, bunda soʻzlar bilan bir qatorda “xalq maqollari”, “idiomatizmlar” va iboralar ham oʻz ifodasini topgan boʻlishi lozimligini alohida taʼkidlagan edi.

XX asrning 60-80 yillariga kelib chet el adabiyotida, jumladan, ingliz adabiyotida ham ibora sohasiga boʻlgan qiziqish tez surʼatlar bilan oʻsdi Gʻarb hamda Amerika tilshunosligida shu vaqtga qadar iboraga bagʻishlangan alohida asar yoʻq edi. Umuman “ibora” termini ilk marotaba Sharl Balli tomonidan “Precis de stylistique” asarida qoʻllanilgan.

Ibora ilk marotaba tilshunoslikning alohida mustaqil boʻlimi sifatida rus tilshunosi Polivanov tomonidan tahlil qilingan boʻlib u iborani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas, balki mustaqil tilshunoslik boʻlimi ekanligini quyidagicha asoslab bergan edi: “Leksikologiya soʻzlarning leksik maʼnolarini, morfologiya soʻzlarning grammatik maʼnolarini, sintaksis esa soʻz birikmalarining grammatik maʼnolarini oʻrganadi. Ammo alohida olingan, koʻchma maʼnoli soʻz birikmalarining, individual maʼnolarini oʻrganadigan tilshunoslikning boʻlimiga ehtiyoj sezilmoqda”. U tilshunoslikda ibora ham, fonetika yoki morfologiya kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi boʻlim ekanligini taʼkidlab oʻtgan tilshunoslardan biridir. Odatda erkin birikmalarni tarjima qilish muammo tugʻdirmaydi. Agar erkin birikmalardagi soʻzlardan biri koʻchma maʼnoda qoʻllansa, uni tarjimada berish qiyinlashadi. Ingliz tilida iboralarning bir nechta turi mavjud boʻlib, ularning har birini tarjima qilishda alohida yondashuv talab etiladi.

Turgʻun birikmalarni tarjima qilish erkin birikmalarni tarjima qilishdan farq qiladi. Turgʻun birikmalar tarjimasida haqida



gapirishdan avval ularning o`z va ko`chma yoki obrazli turlarini farqlab olish lozim. O`z ma`nosida qo`llangan turg`un birikmalarni tarjima qilish yuqorida fikr yuritilgan prinsiplarga asoslanadi. Eng muhim prinsiplardan biri – tarjima til normalarini unutmazlik hisoblanadi.

Tarjima nazariyasi bo`yicha nashr etilgan adabiyotlarda bunday birikmalarni tarjima qilishning to`rtta usuli borligi haqida ma`lumot beriladi. Ular quyidagilardan iborat: -obrazni qanday bo`lsa shundayligicha saqlash; -obrazni qisman o`zgartirish; -obrazni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish; -tarjimada butunlay obrazni saqlamaslik yoki uni tushirib qoldirish. -odatda universal yoki internatsional obrazlar tarjimada to`liq saqlanadi.

Bunday iboralar tarixiy, afsonaviy, diniy, mistik, mifologik va shu kabilarga asoslangan bo`ladi. Masalan, *in the seventh heaven* – yettinchi osmonda. Bunday ibora asliyatning tarjima tilidagi adekvat tarjimasi deb ataladi. Tarjimada to`liq ekvivalentga ega ibora deyarli hech qanday muammo tug`dirmaydi, chunki ular stilistik hamda pragmatik jihatlardan bir xil qiymatga, ma`noga, ifoda usuli va ta`sir kuchiga ega bo`ladi. Iboraviy mos kelishlarning asosiy turlari quyidagilardir:

1. To`liq moslashish. Misol: *to lose one's head* – kallasini yo`qotmoq.

2. Qisman moslashish, ular obrazlilik jihatidan yaqin, lekin leksik tuzilishi, sintaktik kelishuvidan va so`zlar tartibi jihatidan farqlanadi. Misol: *to get out of bed on the wrong foot* – chap yoni bilan turmoq.

3. Moslashishning bo`lmasligi.

Har xil tillarda ko`p iboralar moslashuvi mavjud emas. Ular realiyadir.

Shunday qilib, iboralarni tarjima qilishning qiyin muammolaridan biri, bu ularning vazifaviy va semantik tomondan ajralmas birliklar bo`lib hisoblanishidir.

Quyidagi iboralar ingliz asarlarida tez-tez ishlatilib turadigan iboralar jumlasidandir:

live and learn, soon learn, soon forgotten, to learn by heart, to bear in mind, to learn from mistakes, a game plan, to chop and change, all that glitters is not gold, barking dogs seldom bite, never offer to teach fish to swim, adversity is a great schoolmaster, four eyes see more than two, we shall see what we shall see, easier said than done, many men, many mind, look before you leap.

Xulosa qilib aytganda, so`nggi yillarda chet tilini o`qitish tizimida keng qo`llanilayotgan metodlar asosan bir necha metodning nazariy asoslaridan kelib chiqib shakllangan. Shularga misol tariqasida interfaol metodlarni ham keltirish mumkin. Kelajakda ushbu izlanish til o`rganuvchilarga mavzuni o`rganishda amaliy yordam beradi deb umid qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch". -Toshkent."Ma`naviyat, 2009-yil, 1-bet.
2. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent: 1997, 298-bet.
3. Abdurahmonov G., Sulaymonov H., Holiyorov J. Hozirgi o`zbek adabiy tili. -T.: O`qituvchi, 1979.
4. Hojiyev.A, Ahmedov.A. tahriri ostida. O`zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: FAN, 1981.
5. Latinov L.Ch. Роль английских и русских фразеологических единиц в формировании модальности в тексте. Автор. Дисс. Канд. Фил. Наук. – Волгоград, 2002.
6. Rahmatullayev Sh. O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati. -T.: 1978.
- Ruscha-o`zbekcha lug`at. I-II tom. O`zbek Sovet Ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. – Toshkent: 1983.
7. Salomov G. Til va tarjima. –Toshkent: 1966. 245-bet.
8. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish.- T. O`qituvchi, 1981.



9. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. Гос. Изд-во иностранных и национальных словарей, -Москва: 1984.

Najmiddinova A. Methods of achieving adequacy in the translation of phrases. This article describes how to achieve adequacy in the translation of phrases.

Нажмиддинова А. Способы достижения адекватности при переводе фраз. В этой статье описываются способы достижения адекватности при переводе фраз.